



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 10 oktyabr

№ 1834

### **Buxoro viloyat sudlari sudyalari malaka hay’atining faoliyatini tekshirish natijasi to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to’g’risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2023 yil 10 oktabrdagi xulosasiga muvofiq

### **Q A R O R   Q I L A D I :**

1. Buxoro viloyat sudlari sudyalari malaka hay’atining 2022 yil hamda 2023 yilning 6 oyi davomida faoliyatini tekshirish natijasi yuzasidan Sudyalar oliy kengashi sudyasi G.Ziganshinaning ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro viloyat sudlari sudyalari malaka hay’atining (malaka hay’atining) 2022 yil va 2023 yilning 6 oyi davomidagi faoliyati qoniqarsiz deb hisoblansin.

3. Malaka hay’atining faoliyatini yaxshilash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilsin:

– Malaka hay’atining ish rejasida belgilangan vazifalarni to’liq va sifatli bajarilishi ta’minlansin;

– Malaka hay’ati faoliyati bo’yicha ish yurituvi “Sudyalarga nisbatan xizmat tekshiruvlarini o’tkazish tartibi to’g’risidagi Nizom hamda “Sudyalarning malaka hay’atlarida ish yuritish tartibi to’g’risida”gi Yo’riqnomaga asosan tashkil etilsin;

– Yangi vakolat muddatiga yoxud boshqa sudyalik lavozimlariga ko’rsatilayotgan sudyalarga doir taqdim etilgan materiallarning to’liqligi va to’g’riligi tekshirilishiga e’tibor kuchaytirilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**X.Yodgorov**